



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Azimov Abduraxmon Mamatovich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Samarqand davlat universiteti boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi

## CHIROYLI YOZUVGA O'RGATISH METODLARI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “O'zbek alifbosini lotin yozuviga asoslangan holda joriy etish to'g'risida”gi qonun talablariga muvofiq maktabgacha ta'lim va maktablarning boshlang'ich sinf faoliyatiga doir muammlor yoritilgan. Xulosa sifatida to'g'ri yozishning ahamiyati va uning omma faoliyatida tutgan o'rni alohida ta'kidlanadi. Shuningdek, yozuvning hozirgi holati va kelajakdagi rivojlanishining yozma tarixi haqida batafsil ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Qog'ozrez, hattot, muzahhib, mavvoh, musavvir, qalamqatdon, qamish qalam, siyoh, qo'lyozma, kolligraf.

### МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ КРАСИВОМУ ПИСЬМУ

**Аннотация:** В работе освещаются вопросы деятельности дошкольных и начальных классов и школ в соответствии с требованиями Закона “О введении узбекского алфавита на основе латинской письменности”. Делятся заключение о значении чистописания и его роли в деятельности народных

масс. В работе приводятся подробные сведения об истории письменности ее современном состоянии и дальнейшем развитии.

**Ключевые слова:** резак для бумаги, каллиграф, мавво, художник, писатель, тростниковое перо, тушь, рукопись, каллиграф.

### **TECHNIQUES TO TEACH BEAUTIFUL WRITING**

**Annotation:** In this work the questions of activity of preschool establishments and school are shined (covered) according to die requirements of the low “About introduction of the Uzbek alphabet on the basis of latin writing”. And also the couctustion about meaning (importance) written and histits) role in activity of national weights are giving. In work the particularies on a history writing and a modern condition and further devolepment u given.

**Keywords:** paper cutter, calligrapher, artist, writer, reed pen, ink, manuscript, calligrapher.

**Kirish.** Yosh avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazishdek ma’suliyatli vazifa xalq maorifi zimmasiga yuklatilgan ekan, bu o‘z navbatida, ham sharaflı, ham mas’uliyatli vazifa sanaladi. Chunki yoshlarni ma’naviy va axloqiy pok, iymon-e’tiqodli, insof-diyonatli, or-nomusli, mehr-oqibatli qilib voyaga yetkazish ozmuncha mehnat va mashaqqat talab qilmaydi.

O’sib kelayotgan yoshlarni yetuk va mukammal voyaga yetkazishda «Ta’lim to’g’risida»gi Qonun va DTS ga mos keladigan ta’lim-tarbiya vositalari asosiy ta’limning me’yoriy jihatlari yoshlar kelajagini belgilovchi omil ekanligi doimo ko‘z o‘ngimizda turishi biz pedagoglarning burchimizdir.

Inson hayotidagi birinchi eshitadigan mehribon so‘z onaning allasidir. Allalarda onalarga xos mehr-muhabbat dilining turidan sizib chiqqan mayin yoqimli kuylar taraladi. Allani eshitgan har qanday bola unga quloq tutib orom oladi, ma’naviy qoniqish hosil qiladi. Allaning to’liq matni va ma’nosiga tushunmasa ham, undagi dil nolishi, qalb izhorini yurakdan sezib bola tinchlanadi va orom olib uxlaydi. Alla haqida buyuk alloma Abu Ali Ibn Sino shunday deganlar: «Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo‘llamoq kerak. Birinchisi – bolani

sekin-asta tebratish, ikkinchisi – uni uxlatish uchun aytish odat bo‘lib qolgan musiqa va alladir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantariyaga va ruhi bilan musiqaga bo‘lgan iste’dodi hosil qilinadi».

Bolaning komil inson bo‘lib voyaga yetishida oila va ona tarbiyasi muhim sanalganidek, maktabgacha tarbiya maskanlarida beriladigan ta’lim-tarbiya juda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinfda beriladigan saboqlar ularning hayotida bir umr iz qoldiradi. Bu davrda umrida qalam, ruchka ushlamagan bola yozishni o‘rganadi. Sinf xonasi, parta, ruchka, xattaxta haqida ma’lumotga ega bo‘ladi. Maktab qonun-qoidalarini his qiladi xat savodni, yozish-chizishni o‘rganadi va hokazo.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Chiroyli yozuv inson ma’naviyatining tashqi ko‘rinishini ifodalovchi muhim vositadir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev alohida ta’kidlaganidek, «Yoshlar bizning tayanchimiz, ertangi kundan umidimiz, ezgu ishlarimiz davomchisidir» ekan ularning yozuvi ham o‘zlaridek pok va go‘zal bo‘lishi zarur.

Chiroyli yozuvga doir e’lon qilingan darslik va qo‘llanmalar talaygina.

M.G‘ulomov «Husnixat» uslubiy qo‘llanmasida boshlang‘ich sinflarni yozishga o‘rgatish metodlari haqida fikr boradi. Mazkur uslubiy qo‘llanma boshlang‘ich ta’lim talabalarini ta’lim jarayonida uch yo‘nalishda o‘rgatishga harakat qilgan [1]:

1. Talabalarga husnixat metodikasidan nazariy ma’lumot berish;
2. Husnixat talablari asosida yozishga o‘rgatish;
3. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarni husnixatga o‘rgatishning metod va usullari bilan ta’limiy vositalar bilan tanishtirish, ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga e’tibor berilgan.

M.G‘ulomovning «Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish» («O‘qituvchi» nashriyoti, 1992 yil) nomli qo‘llanmasida ham yuqoridagi fikrlar davom ettiriladi.

M.G‘ulomov, Q.Tursunova, D.Po‘latovalarning «Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish» nomli uslubiy qo‘llanmasida (Toshkent «Turon-iqbol» nashriyoti, 2013 yil) boshlang‘ich ta’limda savod o‘rgatish davri ta’limning eng muhim davri

ekanligi ta'kidlanib, bu davrga oid to'plangan tajribalar asosida o'quvchi-talabalar ongiga yetkazish oson bo'lgan metodlar bilan ish ko'rishgan [2]. Aslida ham hayotda shunaqa, savod o'rgatish davrida bola yaxshi o'rgatilsa, yuqori sinflarda ham yaxshi natijalarga erishadi. Umumiy o'rta ta'limda yaxshi natijalarga erishgan o'quvchi kelajakda mukammal kasb egasi bo'lib, jamiyat uchun, uning ravnaqi, xalqning farovon yashashi uchun jon kuydiradigan mutaxassis bo'lib kamol topadi.

R.Safarova va boshqalarning «Husnixat» darsligi (Toshkent 2003 yil), «Savod o'rgatish darslari» nomli uslubiy qo'llanma (Toshkent 2011 yil), shuningdek, 1-sinf uchun «Yozuv daftari» (Toshkent, «O'qituvchi», 2011 yil) maktab o'qituvchilariga yordam sifatida nashr etilgan [3].

**Tadqiqot metodologiyasi.** «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi»da ish yuritilayotganiga ham ancha muddat bo'ldi. Respublikamizda bu borada sezilarli muvaffaqiyatga erishildi. Jumladan, maktabgacha tarbiya muassasalarida va umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida yangi alifbo bo'yicha darslar olib borilmoqda. Shu munosabat bilan yangi-yangi dasturlar, darslik va o'quv qo'llanmalari, ko'rgazma qurollar, turli xil uslubiy qo'llanmalar yaratildi.

Yosh o'smirlarni lotin yozuvi asosida o'zbek alifbosi va yozuviga o'rgatish o'qituvchi ustozlardan katta tajriba, bilim, qobiliyat, sabr-toqat va izchillikni talab qiladi. «Husnixat» fani asosida bolalarni chiroyli yozuvga o'rgatish – davr talabidir. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidagi harflarning yozma va bosma, kichik qamda bosh shakllarini husnixat talablari asosida yozishga o'rgatish, shuningdek, imlo qoidalari bilan tanishtirish, mustaqil o'qish, yozish ko'nikma va malakalarini mustahkamlashdan iborat.

Taxminan, o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab, yangi dastur asosida o'qishga o'tilib, husnixat fani darslari ona tili darslariga qo'shib berildi. Shuning uchun hozirgi paytda ona tili darslarining hzida chiroyli yozishga o'rgatilib borilmoqda. Husnixat fani «Alifbe» va savod o'rgatish jarayoni bilan vobasta. Shu o'rinda bir narsani eslatib o'tish lozim: Analitik-sintetik (tahlil-tarkib) tovush metodida savod o'rgatish jarayoni 4-oy davom etadi. Bu jarayon 2-davrga bo'linadi [4]:

a) Alifbogacha tayyorgarlik davri (2 hafta)

b) Alifbo davri (31-dekabrgacha davom etadi)

A) Alifbogacha tayyorgarlik davri o'z navbatida 2-bosqichga bo'linadi.

1) Harf o'rganilmaydigan bosqich (1 hafta)

2) Unli tovush va harf o'rganiladigan bosqich (1 hafta)

Bunda yozuv darslarida o'quvchilar yozuv daftari va yozuv chiziqlari bilan tanishtiriladi. Harf elementlarini yozishga o'rgatiladi, ularda namunaga qarab grafik xatolarini aniqlash, o'z-o'zini tekshirish, harf oralarining tengligiga rioya qilish, chamalab yozish kabi ko'nikmalar hosil qilinadi, unli va undosh tovushlar o'rgatiladi.

v) Alifbe davri. Bu davr 31-dekabrgacha davom etadi. Unda o'quvchilar alifbodagi barcha unli va undosh tovush-harflar bilan tanishtiriladi. Shu jarayonda so'zlarni bug'inlarga bo'lish, bug'inlarning chegarasini aniqlash, bug'indan tovushni ajratish, tovush va har munosabatini aniqlash, bug'in tuzish va o'qish, bug'in-tovush, tovush-harflar tahlilini qilib o'rganadilar.

Savod o'rgatish davrida husnixat mashg'ulotlari ham ahamiyatga ega. Savod o'rgatish uchun ajratilgan 140 soatdan tashqari birinchi sinfda husnixat ta'limi uchun (Yozuv daftaridan keyin 3 chorakdan) 21 soat ajratilgan [5]. Husnixat dasturining 4-soati alifbogacha bo'lgan (tayyorgarlik) davriga to'g'ri keladi. 2-sinfda 32 soat, 3-4 sinflarining ona tili darslarining 8-10 dakikasi (mashq ishlash vaqtida) ajratilgan [6].

Chiroyli yozish malakasini o'stirish, toza yozuvga o'rgatish hozirgi davrning eng muhim talablaridan biridir. Xat yozayotgan shaxsning madaniyatini va uni o'qiydigan kishiga bo'lgan hurmatini ham belgilaydi.

Hozirgi kunda, fan-texnika taraqqiyotining o'sishi natijasida kundalik hayotimizda turli-tuman qog'oz va hujjatlardan har xil konspekt, ish rejalari, hisobot va ma'ruzalardan keng foydalanish taomilga kirgan. Bularning hammasi faqat chiroyli va aniq yozish bilan birga, tezlikni ham talab qiladi.

Qisqa muddat ichida o'quvchilarni chiroyli va tez, toza yozish malakalarini o'stirish murakkab masala sanaladi. Buning uchun sabr va fursat talab qiladi. Aslini oladigan bo'lsak, o'zbek xalqi o'zining uzoq asrlik tarixida yaratib qoldirgan

madaniy merosida hattotlik san'ati alohida o'rin tutadi. Arablar O'rta Osiyo xalqlari hududlarini ishg'ol qilganlaridan so'ng, islom dini qabul qilinishi munosabati bilan arab yozuvi ham o'z-o'zidan kirib keldi.

Tarixdan ma'lumki, o'rta asrlarda har qanday asar qo'lda ko'chirilib kitob qilingan. Nafis kitob ko'chirish katta hunar va san'at hisoblangan. Bu hunarni egallaganlar tarixda hattotlar nomi bilan mashhur bo'lganlar. Hattotlarning ko'chirgan kitoblari kishilarni hayajonga solib, ularni zavqlantirgan. Shuning uchun ham hattotlik bilan nom chiqargan shaxslar oddiy kishilar emas, balki o'sha davrning ilm-ma'rifati va yirik madaniyat arbobi hisoblangan. Qo'lda ko'chirilgan har bir asar san'at mo'jizasi kabi nodir asar hisoblangan.

A.Navoiy yashagan davrgacha ham juda ko'plab hattotlar, nafis san'at ijodkorlari yetishib chiqqan. Ular olim va fozil kishilar bo'lganliklari sababli, yoshlikdan hattotlik san'atini egallab, keyinchalik kotiblikda ham nom chiqarganlar. Ular o'z asarlarinigina emas, balki boshqa mualliflarning asarlarini ham mehr bilan ijod etganlar. Masalan, 14-15-asrlarda bir qancha iste'dodli san'atkorlar-nafis san'at ijodkorlari yetishib chiqqanlar. Muhammad bin Husayn at-Tibiy, Mir Ali Tabriziy, Xorazmiy, Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Kilkalam, Munislar shular jumlasidandir.

Alisher Navoiyning moxhr hattot ekanligi tarixiy manbalardan ma'lum. Zahiriddin Muhammad Bobur arab grafikasida turkiy xalqlarga moslab «Xatti Boburiy» alifbosini yaratgan. Munis Xorazmiy hattotlik san'ati haqida «Savodi ta'lim» nomli risola yozgan va A.Navoiyning «Xamsa»sini nihoyatda nafis xat bilan ko'chirgan. Muqimiy ham juda mayda nasta'lik va xatti shikasta uslubida bayoz ko'chirgan. O'rta Osiyoda nafis kitob yaratish texnikasi ixtiro etilmagan bir paytda kotiblikka talab nihoyatda kuchli bo'lgan.

M.G'ulomov, Q.Tursunova, D.Po'latovalarning «Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish» nomli uslubiy qo'llanmasida (Toshkent, "Turon-Iqbol", 2013 yil) xabar berilishicha, o'sha davrlarda qo'lyozmalarni kitob holiga keltirishda bir necha mutaxassislar ishtirok etishgan. Jumladan, qog'ozrez (qog'oz kesuvchi), hattot (kolligraf), muzaxxib (kitob muqovasiga oltin suvi bilan bezak beruvchi), lavvox (lavxa chizuvchi), musavvir (rassom), saxxof (muqovachi) ishtirok etganlar. Shu

yoʻsinda tayyorlangan nafis kitoblar shohlar, buyuk olimlar va shoirlar kutubxonalarida saqlangan [2].

Chiroyli yozish sanʼati ustalari hattotning asar koʻchirish qurollari «Siyoh», «Qamish qalam», «Mistar»(transporant), qalamning uchini chiqarish uchun «qalamtarosh», qalamning uchini kesish uchun yasalgan maxsus suyak plastinka «qalamqatdan»iborat boʻlgan. Qamish qalam hattotning asosiy yozuv quroli hisoblangan.

Chiroyli yozuvchi hattotlar texnik vazifalardan tashqari oʻz yozuv uslublarini ham ishlab chiqarishga intilganlar. Masalan, 11 asrdan boshlab hattotlar hayotida kufiy xati uslubiy keng tarqalgan. Bu uslub asosida arab yozuvining quyidagi uslublari maydonga kelgan: Suls xati, Nasx xati-ixtirochisi hattot Ibn Mukla, Muxakkak xati, Rayxoniy xati –ixtirochisi Ibn Bavvob, Rikoʻ xati, Tavkeʼ xatlaridir. Bu xatlarning har qaysi oʻz oʻrnida ishlatilgan.

**Tahlil va natijalar.** Milliy dasturning asosiy maqsadi taʼlim sohasini tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak maʼnaviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori saviyali, malakali kadrlar tayorlashdir. Oʻquvchi yoshlarda bilim olishga chanqoqlik oʻsdi. Dunyo miqyosida taʼlimning barcha sohalarida raqobat qilish imkoniyatlari tugʻildi [7]. Shunday ekan, bunday imkoniyatdan toʻliq foydalanish uchun savodli, bilim, dunyoqarashi keng, har taraflama madaniyatli yoshlarni voyaga yetkazish davr talabidir. Shu bilan birga ularning yozuv, xati, imlosi ham tushunarli va savodli eng birinchi navbatda chiroyli boʻlishi kerak.

Chiroyli yozuvga erishish uchun maktab oʻquvchisini koʻproq oʻz ustida ishlatishga oʻrgatish, buning uchun ularni qiziqtirish ham lozim. Dars jarayonida xattaxta doskaga yozish mashqini koʻpaytirish kerak. Chunki xattaxta doskada yozish oʻquvchidan katta maʼsuliyat talab qiladi. Shu jarayonda toʻgʻri chiziqli yozishga oʻrganadi. Harflarning katta-kichik va qingʻir-qiyshiq boʻlishini oʻz koʻzi bilan koʻradi, shuni toʻgʻrilashga harakat qiladi.

Yana bir gap, hozirgi oliy maʼlumotli yosh oʻqituvchilarning oʻzlari ham chiroyli kolligrafiyaga ega emasligi maktab tajribasidan maʼlum boʻlib qolmoqda.

O'qituvchining o'zi chiroyli yozolmasa, undan nimani o'rganish mumkin. Maktabda nazariya boshqa, amaliyot boshqa. O'quvchilarga chiroyli yozish qonun-qoidalarini o'rgatish bilan birga xattaxtda yozib ko'rsatishi kerak. Maktab ma'muriyati va rahbarlari ish qoidaga ko'ra ish tutib, chiroyli yozadigan, namunali o'qituvchilarni boshlang'ich sinflarga tayinlashi lozim. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchisi bo'lajak yetuk insonlarning fundamenti sanaladi. Albatta bu fikrlar chetda qolmasligi shart.

**Xulosa va takliflar.** O'quvchilarni barkamol tarbiyalash ularga beriladigan savod va bilimlar sosiologik, psixologik, pedagogik jihatdan to'g'ri yo'naltirilgan bo'lishi kerak. birinchidan ularning savodi, shu jumladan yozuvi, xati chiroyli bo'lishi kerak. Chiroyli yozishga o'rgatish birinchi sinfdan boshlanishi ma'lum. Bola dastlab qanday yozishga o'rgangan bo'lsa, umrining oxirigacha shu yozuvda ketadi. Uni o'zgartirib bo'lmaydi.

- Chiroyli yozuvga o'rgatish uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilarini konkurs orqali tanlash lozim;
- Yosh o'qituvchilarga metodik va amaliy yordam ko'rsatish;
- Yosh o'qituvchilarning husnixat darslarini o'tishi tahlil-analiz qilib turish;
- Dars sifatlari tahlilidan kelib chiqib o'qituvchilarning ustama maosh belgilash uchun tavsiyalar berish;
- Dars tahlili natijalariga ko'ra o'qituvchilarni malaka oshirishga tavsiyalar berish;
- O'z ishining mohir ustasi bo'lgan o'qituvchilarning qo'llanmalar va ishlanmalarini targ'ib qilish;
- Eng yaxshi o'quv-metodik qo'llanmalarni nashrga tavsiya etish;
- Boshlang'ich sinflar bo'yicha emas, balki maktab o'quvchilari uchun «Chiroyli yozuv» konkursini tashkillashtirish;
- Konkursda g'olib chiqqan o'quvchilarni rag'batlantirish, sertifikat berish;
- Chiroyli yozuv sifat va samaradorligini oshirishga bag'ishlangan seminar-treninglar o'tkazilsa yanada samarali bo'ladi.



**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. G‘ulomov M. «Husnixat». Uslubiy qo‘llanma. Toshkent, 1997.
2. G‘ulomov M., Tursunova Q., Po‘latova D. «Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish». Uslubiy qo‘llanma. Toshkent, 2013.
3. 1-sinf yozuv daftari. Toshkent, «O‘qituvchi», 2019.
4. Safarova R. va boshqalar «Alifbe» darsligi. Toshkent, 2011.
5. «Husnixat» darsligi. 1-2 sinflaru chun. Toshkent, 2003.
6. «Husnixat» darsligi. 3-4 sinflar uchun. Toshkent, 2003.
7. Shadiev R., Shadiev N., Fayziev M., Halubitskaya, Y. Improving Student Learning Satisfaction in Lectures in English as a Medium of Instruction with Speech-Enabled Language Translation Application. Lecture Notes in Computer Science (including subseries Lecture Notes in Artificial Intelligence and Lecture Notes in Bioinformatics), 2020, 12555 LNCS, str. 576–581.  
[https://doi.org/10.1007/978-3-030-63885-6\\_62](https://doi.org/10.1007/978-3-030-63885-6_62)